

ONALARNI INTERNETGA BOG‘LANIB QOLISHI NATIJASIDA OILADAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISHI

**ADPI Pedagogika va Psixologiya kafeddrasi o‘qituvchisi
Abdulmajidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi.
ADPI Maxsus pedagogika:logopediya yo‘nalishi I bosqich
talabasi Mamasheva Ra'no Qodirjon qizi.**

Annotatsiya: Hozirgi globallashuv deb nomlanayotgan davrda inson ko‘proq internetga (ijtimoiy tarmoqlarga) vaqt sarflashi odat tusiga aylandi. Bu bir qaraganda odatiy holdek tuyulsada, lekin juda ham o‘ylashimiz va fikr yuritishimiz kerak bo‘lgan holat va muammodir. Ushbu maqolada hozirgi zamonning eng asosiy muammolaridan biri hayotning virtuallashib borayotgani va bu narsa yoshlarning, nafaqat kattalarning ham hayotida yaqqol ko‘zga tashlangani haqida fikrlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: internetga qaramlik, xulq-atvor, virtual hayot, psixika, globallashuv.

Ijtimoiy tarmoqlar qon qonimizga singib ketganini o‘ylagan sari odamni hadik qamrab oladi. Internet bizning ikkinchi oilamiz, do‘stimiz va hatto o‘zimizga aylanib borayotgani isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Har kuni ertalab 80% insonlar (xoh u katta bo‘lsin, xoh kichik) internet bilan tongni kutib oladi, har joyda u biz bilan, u qonimizda. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi insonlarga o‘z hayotlarini internet bilan birlashtirishga imkon berdi. Biroq, ushbu raqamli asrda internetga qaramlik - tashvishli, yechimi yo‘q muammoga aylandi. Bu muammo kattalarni ham, kichiklarni ham o‘z domiga tortmoqda. Internet tarmoqlari insonlarning dunyoqarashini, fikrini o‘zgartirib yubordi. Bu olamga g‘arq bo‘lgan insonlarning deyarli ko‘pchiligida insoniylik, mehr-oqibat tuyg‘ulari, muomala madaniyati kamayib bormoqda. Masalan: telefonda ko‘zini uzmay o‘tirgan ona, yaqinlariga, hatto o‘z farzandiga ham internetga ajratganchalik ko‘p vaqt ajratmay qo‘yayotganini o‘zi ham sezmay qolmoqda. Buning oqibatida ko‘plab aziyat chekmoqda. Ya’ni onalarning o‘z farzandiga e’tiborsizligi tufayli ularda nutqiy kamchiliklar, turli kasalliklarning kech aniqlanishi oqibatida esa bolalarda bir qancha muammolar paydo bo‘lmoqda. Bu tufayli bolalar o‘z tengqurlariga nisbatan ortda qolmoqda. Bu esa bolalarning o‘zini yolg‘iz his qilishiga, bilish jarayonlarining buzilishiga, bir qancha ruhiy kasalliklarga, hatto autizm sindromiga chalinishiga sabab bo‘lmoqda.

Xalqimizda "Qush inida ko‘rganini qiladi" degan maqol bor. Bolaning o‘sib, kamol topishida oiladagi muhitning o‘rni katta ahamiyatga ega. Yoshligidan onasining qo‘lidagi telefonni ko‘rib o‘sib kelayotgan farzandning o‘zi ham telefonga qiziqib qoladi va bu qiziqish oqibatida bolada ham internetga qaramlik holati paydo bo‘ladi. Internet sababli sog‘lom bolalar soni kamayib, nosog‘lom (reallikdan uzilgan, bolalarga hos barcha o‘yinlarni telefonda o‘ynovchi) bolalar soni ko‘paymoqda. Birgina internetga qaram bo‘lib qolish - oilalarda tez-tez janjallar, kelishmovchiliklarning bo‘lib turishiga, hattoki, ba’zi bir hollarda ajrimlar sonini ko‘payishiga olib kelmoqda. Bundan ham ayanchlisi, internet tufayli insonlar real hayotdan uzilib, virtual hayotga o‘tib qolmoqda. Internet bu kabi insonlar vaqtining eng katta dushmani hisoblanadi.[1. 142b].

Internetga qaramlik - bu odamning onlayn faoliyat bilan haddan tashqari band bo‘lgan va bu faoliyatni nazorat qila olmaydigan holat. Kattalarda ko‘pincha bu holat ijtimoiy tarmoqlar (instagram, telegram, you tube, WhatsApp) tomosha qilish kabi faoliyatlar atrofida bo‘lish mumkin.

Internetga qaramlikning bir qancha belgilari bor: haddan tashqari ko‘p vaqt sarflash, psixik muammolar, ijtimoiy izolatsiya, aqliy muammolar, jismoniy salomatlik muammolari, ruhiy salomatlik muammolari, haqiqatdan uzilish, nazoratni yo‘qotish, atrofdagilarga befarqlik.

Internetga qaramlik - insonlarga faqatgina salbiy muammolarni olib keladi. Ya’ni ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo’lgan ota-onalar farzandlariga e’tibor bermasligi, oilada o’ziga tegishli bo’lgan vazifalarni qilmasligi natijasida farzandlarida ham internetga qaramlik holati, internet o’yinlarida yutqazib qo’yishi tufayli depressiyaga tushib, turli xil giyohvand moddalarni iste’mol qilib ko’rish va ularga ruju qo’yish, turli diniy oqimlarga qo’shib qolish, o’g’rilik qilish holatlari uchrab turibdi. Bunday holatlarning yuzaga kelishining asosiy sababi - internetga haddan ziyod bog’lanib qolishdir.

Ijtimoiy tarmoqlar ko’nikishni yuzaga keltiradi. Ekspertlar internetga ko’nikib qolish yoki ijtimoiy tarmoqlarga ko’nikib qolish sindromi mavjud - mavjud emasligi haqida yagona fikrga ega emas, biroq har ikkala holatda ham javob tasdiq shaklida bo’lishiga barcha asoslar bor.

Nottingham Trent universiteti olimlari kishi ruhiy xarakterikasi, shaxs tipi va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o’rtasidagi aloqalar haqidagi ilmiy adabiyotlarni o’rganib chiqdi. Tadqiqot mualliflari quyidagi xulosaga keldi: "Facebook"ga bog’lanib qolish sindromi haqida gapirish uchun barcha asoslar mavjud. Chunki, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o’tkazuvchi bir qator kishilarda shaxsiy hayotdan qochish, butun e’tiborni Facebookga qaratish, haqiqatdan uzoqlashish istagini yashirish kabi qaramlikning barcha belgilari kuzatiladi".

Shuningdek, tadqiqotlar xuruj sindromi ham mavjudligini ko’rsatadi. Bir necha yil avval Suonsidagi universitet olimlari internetdan foydalanishni to’xtatgan kishilar ruhiy xurujdan aziyat chekishini aniqladi. Yaqinda ular ushbu mavzuda yangi tadqiqot o’tkazdi va internetdan vos kechish nafaqat ruhiy shikast yetkazishi, balki jismoniy sog’liqqa ham zarar yetkazishni aniqladi.

Tadqiqot mualliflaridan biri Fir Rid bu holatni quyidagicha tariflaydi: "Internetda juda ko’p vaqt sarflovchi kishilar mobil qurilmadan foydalanishni to’xtatganda, tashvishli holatga tushib qolishi bizga ancha ilgari ma’lum edi. Biroq hozir ruhiy holatdagi o’zgarishlar real jismoniy o’zgarishlar bilan birga kechishini aniqladik".

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ijtimoiy tarmoqlardan hech qanday naf yo’qligini ko’rsatadi. To’g’ri, ular uzoq masofada aloqalarni saqlab turish yoki anchadan buyon aloqani yo’qotgan do’stlarimizni topishga yordam beradi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlardan shunchaki vaqtni o’tkazish yoki undan ham yomonini kayfiyatni ko’tarish uchun foydalanish juda yomon g’oya. Xulosa qilib aytganda, internetdan (ijtimoiy tarmoqlardan) vaqti-vaqti bilan foydalanish kerak. Ulardan haddan ziyod ko’p foydalanish nafaqat o’zimizga, balki atrofimizdagi insonlarga ham zarar yetkazishi mumkin. Zero, ularning hayotiga ham xavf solmaylik.[6. 112b].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimova V. "Oilaviy hayot psixologiyasi: O’quv qo’llanma.-T.:2006-142b.
2. Karimov X. K. O’zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis...psixologiya fanlari nomzodi.-T.: 1994.-142b.
3. Oila, jamiyat, qonun.-T.: "O’zbekiston", 2007.-112b
4. <https://daryo.uz>.